1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

   A) *muvaqqat, arxeolog, televideniya*

   B) *mashmasha, taasufki, e’tiqod*

   C) *texnologiya, gallaktika, uqubat*

   D) *muassis, xuruj, ma’shuqa*

2. G‘afur G‘ulomning **“Shum bola”** asari haqida **to‘g‘ri** ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

   A) *Asarda o‘qituvchilarining tanbehlaridan bezor bo‘lgan va o‘qimasa ham, nimalarga qodirligini isbotlashga uringan yigitcha obrazi mavjud.*

   B) *Qissada o‘rtog‘i ta’sirida bobosini handalak olib berishga ko‘ndirgan va o‘z xoshish istaklarining bajarilishi uchun erkalik qilgan qahramon taqdiri ochib berilgan.*

   C) *Hikoyada otasi “xalq dushmani” degan ayblov bilan hibsga olingan, biroq u paytlarda juda kichik bo‘lgani sabab voqealarni yaxshi anglab yeta olmagan bola obrazi uchraydi.*

   D) *Asarda davrning qiyinchiliklari sabab hayotning achchiq-chuchugini totgan, atrofidagi voqealar ta’sirida qing‘ir ishlarga ham qo‘l urib ko‘rgan qahramon taqdiri haqida so‘z borgan.*

3. Qaysi qatorda tasviriy ifodaning izohi **xato** qo‘llangan?

   A) *sahro kemasi – tuya*

   B) *dehqonning qanoti – texnika*

   C) *baraka urug‘i – bug‘doy*

   D) *mo‘yqalam sohibi – rassom*

4. Sharof boshbekovmimg **“Temir xotin”** komediyasi haqida berilgan **to‘g‘ri** hukmni aniqlang.

   A) *Qo‘chqor misolida sodda va mehnatkash aholining tinimsiz mehnat qilishi, lekin turmush tarzining hech yaxshilanmayotgani ochib berilgan.*

   B) *Olimjon kabi yetuk olimlar yetishib chiqayotgani mamlakatda ilm-fanga yuksak darajada e’tibor qaratilganidan darak beradi.*

   C) *O‘sha davrdagi oilaviy munosabatlarning keskinlashuvi, buning oqibatida farzandlarning sarson bo‘lishi kabi jamiyatdagi illatlar aks ettirilgan.*

   D) *Alomat singari temir robotlarning ko‘payishi kelgusida ishsizlikka olib kelishi mumkinligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.*

5. Qaysa gapda iboraning izohi **xato** berilgan?

   A) *tilga tushmoq – tanilmoq*

   B) *tilini tishlamoq – aytgisi kelmoq*

   C) *tiliga erk bermoq – bemalol gapirmoq*

   D) *til degan bir qarich – maqtanchoq*

6. Qaysa gapda **“tortmoq”** so‘zi, **“ulashmoq, tarqatmoq”** ma’nosida qo‘llangan?

   A) *Tarozida tortib berganida o‘zinglar qarab turganmidinglar? Nimaga endi kam deb, betinglarni yulasizlar.*

   B) *Bir tomonda dorbozlar dor tikadi, qo‘g‘irchoqbozlar chodirxayol pardasini tortadilar.*

   C) *Quyosh, toza havo, keng, tiniq zangori osmon ko‘zlarni beixtiyor tortadi.*

   D) *Anorgul mehmonlarga norinni tortib bo‘lgandan keyin hamma tovoq-qoshiqlarni toza qilib yuvib oldi.*

7. Ezopning **"Bo'ri bilan Laylak"** masali haqida berilgan **to'g'ri** ma'lumotni aniqlang.

   A) *Yaxshilikka yomonlik bilan javob beruvchi kimsalarning illatlariga urg'u berilgan.*

   B) *Qo'ldan kelmaydigan, kuchi va qobiliyati yetmaydigan ishga behuda chiranish oqibatlari ochib berilgan.*

   C) *Ayrim badfe'l kishilar o'zlarining yomonlik qilmaganlarini yaxshilikka yo'yishlari ko'rsatilgan.*

   D) *Og'irning ustidan, yengilning ostidan yurishga odatlangan kishilar qoralangan.*

8. **"Go'ro'g'lining tug'ilishi"** dostoni voqealariga mos tarzda shakllantirilgan javobni aniqlang.

   A) *Dostonda taqdir taqozosi bilan boshiga davlat qushi qo'nib, bir yurtga podshoh bo'lgan yigit obrazi uchraydi.*

   B) *Ayrim podshohlarning maslahatga quloq solmay, o'ylamay qaror qabul qilishi, uzoqni ko'ra bilmasligi ko'plab insonlarning bevaqt o'limiga sabab bo'lishi kabi nuqsonlari ko'zga tashlanadi.*

   C) *Yori qo'ygan bir nechta shartlardan do'stining ko'magi bilan o'tib, mardligini maydonda sinagan bahodir yigit taqdiri tasvirlangan.*

   D) *Dostonda o'zga dinni qabul qilishdan bosh tortgani sabab zindonga tushgan yigit haqida so'z borgan.*

9. Berilgan gapda qo'llangan ko'makchi qanday **mazmun** ifodalashga xizmat qilgan?

   Bu yerga Madali akaning jig'iga tegish, rashkini keltirish uchun kirganligimni eslab mulzam bo'ldim.

   A) *sabab* B) *maqsad* C) *vosita* D) *holat*

10. Chexovning **"Garov"** hikoyasi haqidagi **to'g'ri** javobni aniqlang.

    A) *Huquqshunos tutqunlikning so'nggi yillarida sharob ichish va kitob mutolaa qilishdan voz kechadi.*

    B) *Tutqunlikning birinchi yilida huquqshunosga yengil-yelpi mazmundagi kitoblar – chigal sujetli ishqiy romanlar, jinoiy va fantastik ruhdagi hikoyalar, komediyalar yetkazib berib turiladi.*

    C) *Bankirning moliyaviy ahvoli yomonlashgani uchun huquqshunos garov shartini atayin buzib, muddatidan oldin qochib ketadi.*

    D) *Inson hayotida baxtli yashashi uchun boylikning o'rni beqiyos ekanligi yosh huquqshunos misolida ochib beriladi.*

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.

11. Quyida berilgan qaysi gaplarda ikki ma'noviy turdagi olmoshlar **bir xil sintaktik vazifa** bajargan?

    1. Ko'p yillar avval kimdandir xafa bo'ldim va hech kim bilan gaplashmay qo'ydim.

    2. O'shanda biz yosh edik, har yili hordiq chiqarish uchun sayohatga chiqardik.


    3. O'g'lim, sening dog'ingda jon-u jahonim otash – alangaga aylanib ketganida birovlar etagining uchi ham tutamaydi.

    4. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, o'sha yerni, albatta, kimdir to'ldirishga harakat qiladi.


    A) *1, 3, 4* B) *faqat 2, 4*
    C) *faqat 2, 3* D) *faqat 1, 3*

12. O‘zaro **ma’nodoshlik** hosil qila oladigan so‘zlarni aniqlang.


A)




B)



C)



D)



13. Pushkinning **“Yevgeniy Onegin”** asaridagi **Onegin** obraziga berilgan to‘g‘ri ta’rifni toping.

A) *She’riy vaznlarni yaxshi biladigan, kitob o‘qiydigan adabiyotsevar obraz.*

B) *Vaziyatga tez moslasha oladigan, ba’zan uyatchan, ba’zan beor, riyokor qahramon.*

C) *O‘zgalar dardini o‘z dardidek ko‘radigan, barchaga mehribon obraz.*

D) *Iqtisodiyot yoqtirmaydigan, davlatning boyish yo‘llariga qiziqmaydigan qahramon.*

14. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

A) *baxtli-saodatli, qarama-qarshi, aks-sado*

B) *birdan-bir, zam-zam, shoshma-shoshar*

C) *arzon-garov, ustiga-ustak, rango-rang*

D) *azal-azaldan, abadul-abad, tavba-tazarru*

15. **"Ulug‘bek xazinasi"** asari qahramonlari haqida **xato** ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

A) **Qalandar Qarnoqiy** – *uzoq Yassidan haqiqat izlab, Ulug‘bek taxtiga bosh urib kelgan va undan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgan inson.*

B) **Ali Qushchi** – *Ulug‘bekning shogirdi, u vafot etgach kitoblarini saqlab qolishga chin dildan uringan qahramon.*

C) **Amir Jondor** – *o‘z mansabini suiiste’mol qilib Mironshoh bilan til biriktirgan hamda Ulug‘bekka xiyonat qilgan obraz.*

D) **Bobo Husayn** – *bir paytlar juda mashhur temirchi bo‘lgan, Amir Temurga qilich yasab bergan qahramon.*

16. Ikkinchi hamda uchinchi gaplarni mazmun va grammatik jihatdan **to‘g‘ri** bog‘laydigan bog‘lovchini aniqlang.

1. Atrof zim-ziyo:

2. Ko‘kda bitta yulduz ko‘rinadi.

3. Undan tushishi mumkin bo‘lgan bir qatim nur ko‘zga tashlanadi.

A) *ammo*

B) *goh, goh*

C) *hamda*

D) *na, na*

17. Chingiz Aytmatovning **"Asrga tatigulik kun"** asarida qatnashgan obrazlarga **to'g'ri** ta'rif berilgan qatorni toping.

A) **Edigey** – *o'z qabilasining udumlarini muqaddas hisoblaydigan, el orasida qadr topmasa-da, nabirasiga o'z rivoyatlarini aytishdan charchamaydigan obraz.*

B) **Sobitjon** – *qaynotasi amal qiladigan milliy urf-odatlarni mensimaydigan, ayolini befarzandlikda ayblab kaltaklaydigan g'addor kimsa.*

C) **Jo'lomon** – *otasining xunini olish uchun jangga kirgan, ammo dushmanga asir tushib o'zligidan ayrilgan qahramon.*

D) **Nayman ona** – *jangdan qochib kelgan o'gliga insof solmoqchi bo'lgan, ammo buni uddalay olmay vafot etgan obraz.*

18. Qaysi gaplarda **tire** o'zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo'llangan?

1. Dono xalqimizda maqol bor: "Birniki – mingga, mingniki – tumanga".

2. Nodon lashkarning nog'orasiga o'xshaydi: ovozi baland – ichi bo'sh va g'arib.

3. Uzoq sukutdan keyin dadil gapira boshladi: "Mard bir o'lar, nomard – ming".

4. Tovushlarning kichik, ulug'i, tovushlarning hidi – bo'yi bor.

5. Shodon kunlarimiz, birga o'sgan davrlar, birinchi maktab – hammasi o'zgacha edi.

6. Bu dashtda baland bo'yli, keng soyali daraxtlarni uchratmaysiz – hamma yoqda ko'm-ko'k, past bo'yli o'tlarni ko'rasiz.

A) *1 va 3* B) *5 va 6*
C) *1 va 4* D) *2 va 6*

19. Erkin A'zamning **"Tanho qayiq"** asari voqealari **to'g'ri** talqin qilingan javobni aniqlang.

A) *Qalimbet ancha yillardan buyon otasini Haj safariga jo'natish uchun harakat qilar edi.*

B) *Gulxadicha otasining sog'lig'idan xavotirlangani uchun uni shifokorga tekshirtiradi.*

C) *Orol bobo O'tagan maxsumdan Ametni chet elga yubormaslikni so'rash uchun qizining uyidan qaytib keladi.*

D) *O'tagan maxsum Orol boboni shogirdlari hisobidan kun ko'rishda ayblaydi.*

20. Erkin Vohidovmning **"Ruhlar isyoni"** dostonidagi Nazrul Islomga obraziga mos **to'g'ri** ma'lumotni toping.

A) *Uzoq yillik an'anaga qarshi chiqqan va vafotidan so'ng qilichi bilan ko'milgan obraz.*

B) *Tirikligida qadrlanmagan, ammo vafotidan so'ng sharafiga oltin haykal qo'yilgan qahramon.*

C) *Hindlar va musulmonlar o'rtasidagi adovatga sababchi bo'lgan va buni g'arazli maqsadlarda qo'llamoqchi bo'lgan kishi.*

D) *Irqchilik va zulmga qarshi kurashgan, o'z umrini xalqiga baxsh etgan vatanparvar inson.*

21. Berilgan gapda qatnashqan qo‘shimchalar haqida **xato** hukmni toping.

O‘zining yoqimli shildirashi bilan hammani jalb qilgan anhor bo‘yida bo‘lib o‘tgan bugungi suhbatda boyish haqida uzoq gapirishdi. Ba’zi insonlarning bu haqda aytgan gaplari qahqaha – kulgiga, ba’zi odamlarning fikri esa maqtovga sabab bo‘ldi.

A) *Ot va fe’l yasovchi qo‘shimchalarning o‘zaro shakldoshligi yuz bergan.*

B) *Ot va sifat yasovchi qo‘shimchalarning o‘zaro shakldoshligi ro‘y bergan.*

C) *Fe’lning lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarining o‘zaro shakldoshligi yuz bergan.*

D) *Sintaktik shakl yasovchi va so‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘zaro shakldoshligi yuz bergan.*

22. Berilgan gap haqidagi **xato** hukmni toping.

Eng yaqin va qadrdon do‘stimni ko‘rganimga, u bilan o‘tgan damlar haqida miriqib gaplashganimga xursand bo‘ldim. Do‘stim ham men bilan uchrashishni avvaldan maqsad qilgan ekan. Bizga qishlog‘imizni, yoshligimiz birga o‘tgan go‘shani, aylanishda sinfdoshlarimiz hamrohlik qilishdi.


A) *Sifatlovchi aniqlovchi va vositali to‘ldiruvchi uyushgan.*

B) *Vositasiz to‘ldiruvchi ajratilgan.*

C) *Egalar bir turkum bilan ifodalangan.*

D) *Uyushgan hollar kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri tobelangan.*

23. **Shama** so‘zining izoh(lar)i **to‘g‘ri** berilgan javobni aniqlang.



A) *2, 4* B) *faqat 1, 2* C) *1, 2, 4* D) *faqat 3*

24. Har uchala gapda ishtirok etgan **fe'l shakllarini** aniqlang.

I. Ochilish gullarga xos, ba’zan bo‘ladi xazon,
Daraxtlar ham goh yalang‘och, goh kiyar yashil chopon.

II. Bukun so‘zlamoqqa senda imkon bor,
Har qancha yaxshi so‘z topsang, aytib qol.

III. Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim.

1) qo‘shma fe'l; 2) sof fe’l; 3) xabar maylidagi fe'l; 4) harakat nomi; 5) o‘timli fe'l.

A) *faqat 1, 3* B) *faqat 2, 5*
C) *2, 4, 5* D) *2, 3, 5*

25. Ushbu gap haqidagi **xato** hukmni aniqlang.

– Birodar, meni avar shoiri Rasul Hamzatovning uyiga, Sada ovuliga, boshlab bora olasizmi?
– Jonim bilan.

1) ajratilgan bo‘lak ishtirok etgan;

2) kiritma ishtirok etgan;

3) to‘liqsiz gap ishtirok etgan;

4) shaxsi ma’lum gap ishtirok etgan;

5) so‘z-gap ishtirok etgan.

A) *2, 5* B) *1, 4, 5* C) *3, 4* D) *2, 3*

Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

I

Chayonlar – o‘rgimchaksimonlar turkumiga mansub qadimiy jonivorlar bo‘lib, ular 430 million yil oldin paydo bo‘lgan. Dastlabki chayonlar dengizlarda yashagan va suv muhitiga moslashgan. Evolyutsiya jarayonida ular quruqlikka chiqib, yirtqich hasharotlar sifatida rivojlandi. Chayonlar tabiatda muvozanatni saqlashda muhim o‘rin tutadi, chunki ular hasharot va mayda umurtqasiz jonivorlarni nazorat qilish orqali zararli organizmlar sonini cheklaydi. Shu bilan birga, ularning zahri tibbiyotda tadqiqot obyekti sifatida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Neyrotoksinlardan ba’zi dori vositalarini yaratishda foydalanish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

II

Chayonlar dunyoning barcha qit’alarida uchraydi, lekin Antarktidada chayonlar mavjud emas. Buning sababi sifatida chayonlar sovuqqa chidamli emasligi ko‘rsatiladi. Ular cho‘l va yarim cho‘llardagi jazirama issiq, toshloq va qumli hududlarga juda yaxshi moslashgan va u yerlarda yashaydi. Shuningdek, o‘rmonlarda, quruq savannalarda va hatto ba'zi tog‘li hududlarda ham uchraydi. Ular kechasi faol bo‘lib, kunduzi jazirama va dushmanlardan qochish uchun turli joylarda yashirinadi.

III

Chayonlarning tanasi uch qismdan iborat: bosh-ko‘krak, qorin va dum. Ularning asosiy xususiyati uzun, egiluvchan dumi va uning oxirida joylashgan zaharli tikandir. Chayonlarning tanasi kitin qatlami bilan qoplangan, bu ularni tashqi muhitning salbiy ta’siridan himoya qiladi. Ularning sakkizta oyog‘i va ikkita kuchli tutqichi bo‘lib, bu ularga o‘ljasini ushlash va mayda jonivorlarni tutib yeyishda yordam beradi. Ko‘zlari ko‘rish qobiliyati past bo‘lsa-da, sezgir tuklar orqali atrof-muhitni his qilishda mohir.

IV

Chayonlarning zahri ov qilish va himoyalanishda muhim ahamiyatga ega. Ularning zahar tarkibi neyrotoksinlar va boshqa kimyoviy moddalardan iborat. Ba'zi chayonlarning zahri odamlar uchun xavfli bo‘lsa, ayrimlarining zahri faqat o‘ljalariga ta’sir ko‘rsatadi. Shunga qaramay, chayonlar odatda agressiv emas va odamni faqat xavf tug‘ilganda chaqadi. Chayonlar sovuqqa chidamsiz jonzot sifatida fanga ma’lum. Chayonlar evolyutsiya va ekologiya nuqtai nazaridan hayratlanarli jonivorlar bo‘lib, ular haqidagi ilmiy tadqiqotlar tabiatning murakkabligi va mo‘jizalarini o‘rganishga yordam beradi.

26. Matn mazmunida **aks etgan** ma'lumotni aniqlang.

A) *Chayon zahridan dori-darmon tayyorlash yo'lga qo'yilgan.*

B) *Chayonlar asosan issiq hududlarda uchraydi.*

C) *Chayonlar uzoqdan xavfni sezish qobiliyatiga ega.*

D) *Chayonning tanasi mayda tukchalardan tarkib topgan.*

27. Matnning raqamlar ko'rsatilgan qaysi qismida matn mazmuniga oid **uslubiy xatolik** kuzatilgan?

A) *I* B) *II* C) *III* D) *IV*

28. Matn mazmuniga **xos bo'lgan** to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A) *Chayonlardagi dum o'ljani osonroq tutishga yordam beradi.*

B) *Chayonlar issiq tuproq qatlamida harakatlana olmaydi.*

C) *Chayonlar bugungi kunda suv va quruqlikda yashaydi.*

D) *Chayon zahri chayon turlaridan kelib chiqib farqlanadi.*

G'azalni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

***

Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,
G'alatdur, qomating oldida guldan pirahan nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik.

29. Birinchi bayt mazmuni **to'g'ri** ifodalangan javobni aniqlang.

A) *Misralarda yorning qomati sarv va yosuman guliga o'xshatilgan.*

B) *Baytda yorning sarv daraxtining ustiga yosuman guli payvand qilingandek go'zal ekanligi tasvirlangan.*

C) *G'azalda yor qomati sarvdan, ko'ylagi guldan-da nozik va go'zalligi aks etgan.*

D) *Shoir g'azalda mahbubaning ko'ylagi yosuman gulining yaproqlaridan tayyorlanganini ta'kidlagan.*

30. Ikkinchi bayt haqida berilgan **to'g'ri** ma'lumotni aniqlang.

A) *Yorning go'zalligini qiyosiy ta'riflashda talmeh san'atidan foydalanilgan.*

B) *Mahbubaning chiroyini tasvirlashda ruju san'ati ma'no nozikligini oshirgan.*

C) *Oshiq ma'shuqaning husnini ta'riflashda irsoli masal san'atini qo'llagan.*

D) *Shoir yorning go'zalligini ta'riflashda husni ta'lil san'atini qo'llagan.*